TASDIQLAYMAN
Harbiylashtirilgan qo'riqlash
boshqarmasi boshlig'i
_____ R.K.Sabirov

Harbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasi
boshlig'ining 2026 yil 30 sentabrdagiUchuvchisiz
uchadigan apparatlar harid qilish to'g'risidagi xatiga
ILOVA

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar harid qilish uchun
TEXNIK VAZIFA

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Nomlanishi
Uchuvchisiz uchadigan apparat (kvadrokopter)
1.2. Asos va harid qilishdan maqsad
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ-360 sonli Qarori 10-bandi. O'ta muhim va toifalangan obyektlarni qo'riqlash va mudofaa qilish bo'yicha xizmat faoliyati samaradorligini oshirish, obyektlar hududini kuzatuv orqali monitoring qilish.

2. Qo'llanishi

O'ta muhim va toifalangan obyektlar hududi, ularga yashirin kelish yo'llari hamda yurish qiyin bo'lgan hududlar.

3. Miqdori, butlovchi qismlari
Qurilma miqdori: 5 komplekt To'plamda: 3 dona AKB va 1 dona bir vaqtda 3 dona AKB zaryadlovchi xab qurilmasi, 1 dona transportirovka keysi bo'lishi lozim.

4. Texnik talablar

4.1. Texnik ko'rsatgichlari
- maksimal uchish tezligi: 80 km/soatgacha; - maksimalparvoz vaqti: 1 komplekt batareya bilan 40 daqiqadan 60 daqiqagacha; - ishlash harorati: -40 °C dan + 65 °C gacha; - maksimaluchish balandligi: 2000 metr; - shamolgachidamliligi: o'rtacha 20 m/s tezlikdagi shamolga dosh berish (uchish va qo'nish vaqtida 15 m/s); - aloqa va boshqaruv masofasi: ochiq maydonda 20-30 km. - video va foto tasvirga olish uchun yuqori aniqlikdagi kamera bilan jihozlangan bo'lishi; - qo'shimcha modullar (GPS-navigatsiya, balandlik, to'siqlar datchiklari va h.k.lar) o'rnatish imkoniyati mavjud bo'lishi;

- teplovizor (issiqlik kamerasi): aniqligi 640×512 piksel, kadrlar chastotasi 30 Gs dan yuqori. Haroratni o‘lchash aniqligi: ±2°C yoki ±2%;

- zum (yaqinlashtiruvchi) kamera: 1/2" CMOS matritsa, 48 Mp. 5x dan 16x gacha optik va 200x gacha maksimal gibrid zum (yaqinlashtirish) imkoniyati mavjudligi. Video tasvirni olish formati 4K-8K (30 k/s);

- keng burchakli kamera: 1/2" CMOS matritsa, 12 Mp dan yuqori, ko‘rish burchagi (DFOV) 84°.

- lazer masofa o‘lchagich (Dalnomer): Ishlash masofasi 3 metrdan 2000 metrgacha (aniqligi ±0.2 m). Nishonning aniq GPS koordinatalarini ko‘rsatib berish imkoniyati mavjudligi;

- tunda uchish uchun mo‘ljallangan alohida FPV-kamera mavjudligi;

- pozitsiyani aniqlash: Santimetrlik aniqlik uchun ichki moduli mavjudligi;

- boshqaruv pulti: katta va yorqin ekranga ega DJI RC Plus. Korpusi namlikdan himoyalangan bo‘lishi.

4.2. Material va komponentlarga talablar

- qurilma mustahkam va yengil material (karbon, alyuminiy yoki kompozitlar)dan tayyorlangan bo‘lishi;

- dvigatellar ishonchli va tejamkor bo‘lishi (uzoq vaqt parvoz qilishini ta’minlash uchun);

- kamera yuqori aniqlik va HD formatda video tasvirga olish imkoniyatiga ega bo‘lishi.

4.3. Dastur ta’minotiga talablar

- qurilma ishonchli boshqarishni ta’minlaydigan dasturga ega bo‘lishi;

- parvozdan oldin qurilmani avtomatik kalibrovka qilish va sozlash imkoniyati mavjudligi.

4.4. Xavfsizlik talablari

- qurilmaning barcha komponentlari sertifikatlangan va xavfsizlik talablariga mos bo‘lishi;

- uchish rejimi: uyga qaytish (RTH), belgilangan nuqtalarga uchish (Waypoints), tanlangan pozitsiyani ushlab turish, to‘siqlarni aylanib o‘tish yoki ko‘rib to‘xtash imkoniyatlari mavjudligi;

- signal uzilganda yoki batareyaning quvvati kam qolganda avtomatik uyga qaytish rejimi mavjudligi;

- tizimlar dublikatsiyasi (Zaxira) mavjudligi: Agar parvoz paytida asosiy datchiklardan biri ishdan chiqsa, zaxiradagi datchiklarning avtomatik ishga tushishi va halokatning oldini olish imkoniyatlari mavjudligi;

- qurilmani boshqarish operatorga xavfsiz va qulay bo‘lishi.

4.5. Qadoqlash va tashish talablari

- qadoqlash ishonchli hamda qurilmani tashish uchun xavfsiz bo‘lishi;

- qurilmani tashish barcha xavfsizlik talablariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi.

4.6. Sifat nazorati

- qurilma sifati nazorati barcha bosqichlarda, shuningdek material va komponentlarni tekshirish, yig‘ish va test qilish davrida amalga oshirilishi;

- qurilma bilan ishlovchi personalni o‘qitish (o‘rgatish), har bir qurilma uchun 6 nafargacha xodim.

4.7. Hujjatlar to‘plami
- hujjatlar to‘plami qurilmaning barcha texnik xususiyatlarini, material, komponentlarga talablarni, dastur ta’minoti, xavfsizlik va dizayn talablaridan iborat bo‘lishi; - hujjatlar to‘plami barcha tomonlar uchun ochiq bo‘lishi.
4.8. Texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash
- qurilma oldi-sotdidan so‘ng unga texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash; - qo‘llab-quvvatlash – personalni o‘qitishni, foydalanish va ta’mirlash bo‘yicha konsultasiyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi.
4.9. Ishonchlilik talablari
- changdan va har tomonlama sepiladigan suvdan himoyalangan, ya’ni yomg‘ir va qorda ham ucha olish imkoniyati mavjudligi; - uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi qurilmalar ta’siridan ishonchli himoya tizimi mavjudligi.

5. Kafolat taqdim etilishining hajm va/yoki muddatiga talablar

Foydalanish uchun joriy etilgan kundan boshlab kamida 1-yil davomida sifatli ishlashi kafolatlanishi, kafolat muddati davrida keltirilgan zararni yetkazib beruvchi tomonidan qoplanishi.

6. Qo‘shimcha talablar

Foydalanuvchi operatorlarni qurilmadan foydalanish uchun o‘qitish hamda kerakli hujjatlar (sertifikat) taqdim etish.

Aloqa va avtotexnika vositalari katta noziri **Sh.O.Saparov**